

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining gazetasi

2025-yil 24-dekabr № 15 (1561)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

JAHON ANDOZALARIGA MOS

Po'lat list o'ramlari ichki bozorning ehtiyojlarini qoplab, kombinatning eksport salohiyatini oshiradi.

2

TARAQQIYOT TO'SIG'I

Alloh taolo taqiqlagan, Payg'ambarimiz qarg'agan ishni qiladiganlarga qarshi kurash barchaning burchi.

3

MATONAT SAMARASI

"Bekobod Emal" MCHJning katta ustasi Hasanboy Otayev karate (WKF) bo'yicha O'zbekiston chempioni bo'ldi.

4

Aziz va muhtaram metallurglar!

Sizlarni kirib kelayotgan Yangi – 2026-yil bilan samimiy muborakbod etamiz.

Barchangizga mustahkam sihat-salomatlik, oilaviy baxt-saodat, xonadonlaringizga tinchlik va farovonlik, mashaqqatli va sharaflı mehnat faoliyatingizda ulkan yutuq va muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, iqtisodiy taraqqiyot va sanoat salohiyatining yuksalishida metallurglar mehnati katta ahamiyat kasb etmoqda. Siz aziz metallurglar yuksak mas'uliyat va fidokorona mehnatingiz bilan kombinatimiz hamda Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shib kelmoqdasiz.

Kombinatimizda yangi quvvatlarni o'zlashtirish, zamonaviy

YANGI YIL TABRIGI



innovatsion texnologiyalarni samarali joriy etishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Joriy yilning 8-dekabr kuni kombinatimizdagi eng yirik investitsiya loyihasi hisoblangan Quyuv-prokatlash majmuasida ilk bor mahsulot ishlab chiqarilib, muhim tarixiy voqea ro'y berdi. Bu kabi yuksak natijalarga erishishda hamkorlarimiz bilan bir qatorda Siz aziz bekobodlik metallurglarning mehnati va sa'y-harakatlari alohida e'tirofqa loyiq.

Hurmatli metallurglar!

Barchangizni kirib kelayotgan Yangi yil bayrami bilan yana bir bor chin qalbindan tabriklayman. 2026-yil Siz va yaqinlaringiz uchun qutlug', fayzli va barakali bo'lsin!

"O'zmetkombinat" AJ Boshqaruvi.

8-dekabr – Konstitutsiya kuni kombinatimizdagi Quyuv-prokatlash majmuasida ilk bor issiq holda prokatlangan po'lat list o'ramlari muvaffaqiyatli ishlab chiqarildi. Bu nafaqat korxonamiz, balki butun metallurgiya sanoati tarixida muhim bosqich bo'ldi.

QUYUV-PROKATLASH MAJMUASI

ILK MAHSULOT ISHLAB CHIQRILDI


Keng ko'lamli loyiha

Bu majmua yiliga 1 million 40 ming tonna issiq holda prokatlangan po'lat list o'ramlarini ishlab chiqarish quvvatiga ega. Bu loyiha korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini ikki barobarga oshiradi.

Quyuv-prokatlash majmuasi qurilishi

2018-yilda boshlangan. Majmua Italiyaning yetakchi kompaniyasi "Danieli" tomonidan yetkazib berilgan va o'rnatilgan eng yangi texnologiyalar va yuqori aniqlikdagi uskunalar bilan jihozlangan.

(Davomi 2-sahifada).



GAZETA O'QIMASLIK - ZAMONAVIYLIKMI YOKI QOLOQLIK?

Ma'naviyat targ'ibotchisi

Ma'naviyat va ma'rifatga e'tibor qaratilmasa, xalq va mamlakatning ma'naviy-ma'rifiy asoslari yemiriladi, bunday jamiyat esa muqarrar ravishda tanazulga yuz tutadi. Shu bois ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirishga xizmat qiladigan kitob va gazetalardan ongli, to'g'ri va maqsadli foydalanish nihoyatda muhim.

Har narsaning o'z o'rne bor

Shunday holatlar bo'ladiki, qadrlanmagan biror narsa ba'zi vaziyatlarda boshqalar bajara olmagan asosiy vazifani bajarishi mumkin. Masalan, ustunlari, naqshlari, gumbazlari, peshtoqlari bilan juda go'zal bino quring. Odamlar uning bezaklariga, naqshlariga, peshtoqlariga mahliyo bo'lishadi, ammo tomni mahkamlab turgan oddiy mixga hech kim e'tibor bermaydi. U sug'urilib ketsa, birinchi shamoldayoq tom ko'tarilib ketadi. Keyin yog'ilgan yomg'ir uyga kirib, bo'yoqlarni buzadi, gilamlarni loyqaga botiradi, pardalar, peshtoqlargacha zarar yetkazadi.

Qissadan hissa shuki, hayotda ham birov ilg'ar, birov ilg'amas, birov bilar, birov bilmas har bir narsaning o'z o'rne, o'z vazifasi bor. Uni vaqtida payqash va qadrlash kerak.

Nega tashmachilik kam bo'lgan?

Mustaqillikning dastlabki yillarida metallurgiya zavodimizda korxonani pensiyaga chiqqan chol va kampirlar qo'riqlardi. Rostini aytganda, o'sha paytda zavoddan istalgan narsani olib chiqib ketish katta muammo emas edi. Biroq negadir tashmachilik ancha kam bo'lardi. Chunki o'sha vaqtlarda odamlar ko'p o'qishar, gazeta va kitoblarni qadrlashardi. Pochtalar oldida odamlar Toshkentdan gazetalar kelishini sabr bilan kutib o'tirardi. Barcha qatori ishchi-xodimlarning kitob va gazetalarni muntazm ravishda o'qishlari, ma'naviy va ma'rifiy dunyoqarashlari yuqoriligi uchun ham korxonada tashmachilik kam bo'lgan.

(Davomi 2-sahifada).



ILK MAHSULOT ISHLAB CHIQRILDI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Shuningdek, bu kompaniya mahalliy mutaxassislarni unda ishlashga tayyorladi va texnik konsultatsiya xizmatlarini ko'rsatdi. Qurilish ishlari hamda yordamchi inshootlar Turkiyaning "Ronesans Avrasyasi" tomonidan amalga oshirildi va majmua zamonaviy standartlarga mos holda barpo qilindi.

Xorijiy mutaxassislar boshchiligida majmuani ishga tushirishda mahalliy mutaxassislar ham qurilish ishlarida ishtirok etdilar.

Eksport salohiyatini oshiradi

Quyuv-prokatlash majmuasida issiq holda prokatlangan po'lat list o'ramlari tayyorlanadi. Tayyor mahsulotning og'irligi 30 tonna, kengligi 800 - 1300 millimetr, qalinligi 1,4 - 12 millimetr. Mahsulotning asosiy iste'molchilari sovuq prokat ishlab chiqaruvchilar, profnastil tayyorlovchi korxonalar, metall konstruksiya ishlab chiqaruvchi subyektlar, payvandlangan quvurlar va bukilgan profillar ishlab chiqaruvchilardan iborat.

Majmua zamonaviy metallurgiya texnologiyalarining to'liq zanjiri asosida



ishlaydi. Jarayonda elektr po'lat eritish pechi, avtomatlashtirilgan po'lat quyish kompleksi, vakuumator, gazni tozalash tizimi, metall quyish mashinasi, tunnel pechi, issiq holatda prokatlash stanlari va suvni tayyorlash tizimi kabilar qo'llaniladi. Bunday texnologik uyg'unlik ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini barqaror qiladi va majmuaning umumiy samaradorligini oshiradi.

Shahar infratuzilmasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi

Loyiha doirasida amalga oshirilgan ishlar Bekobod shahri iqtisodiy va infratuzilma rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, Toshkent markaziy yo'lidan Bekobod shahriga kirib kelish joyidan Elektrda po'lat eritish bo'linmasigacha, uzunligi 1,2 km. bo'lgan avtomobil yo'li qurildi.

Qurilish maydonchasi uchun zarur xomashyolar oqimini ta'minlash maqsadida kombinatda yangi zamonaviy, jahon talablariga javob beradigan nazorat o'tish joyi qurilib, foydalanishga topshirildi.

Kombinat temiryo'lchilari tomonidan Ferroqotishmalar ishlab chiqarish bo'linmasining ombori yonidan Quyuv-prokatlash majmuasigacha bo'lgan 814 metr uzunlikdagi temir yo'l qurildi.

O'zbekiston metallurgiya kombinatida Quyuv-prokatlash majmuasining ishga tushirilishi mamlakat sanoati uchun strategik ahamiyatga ega qadamdir. Loyiha texnologik jihatdan ilg'or, iqtisodiy jihatdan samarali hamda ijtimoiy jihatdan aholi bandligini ta'minlovchi omil sifatida ahamiyat kasb etadi.

Nigora AXMEDOVA.

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Avval va hozir

Kombinatimizda gazetalar doim e'tibor markazida bo'lgan. Rahbariyat tomonidan gazetalarning sexlarga va ishchi-xodimlarga o'z vaqtida yetkazilishi qat'iy nazorat qilingan. Gazetaning yangi sonlari ko'rinarli joylarga ilib qo'yilardi.

Korxonada tashmachilik qilganlarning ism-familiyalari gazetada e'lon qilingan. Aksar hollarda odamlar aynan gazetada chiqmaslik uchun turli yo'llarni izlar, "qamalsam ham gazetada chiqib sharmanda bo'lmay", deyishardi. Bu gazetada chop etilgan maqolaning qanchalik katta ta'sir kuchiga ega ekanini ko'rsatadi. Chunki ijtimoiy tarmoqdagi xabarlar bir necha kundayoq unutiladi, gazeta esa yillab saqlanadi. Unda yoritilgan voqealar oradan necha yil o'tsa ham yana qaytadan e'tiborga tushib turadi.

Avvallari yangi kitoblar 100 ming va undan ham oshiq nusxalarda chiqarilardi. Eng muhimi ular sotilib ketilardi. Endilikda kitoblar 4 - 5 ming nusxada chiqsa ham katta gap bo'lib qoldi. Gazetalar ham shunday.

Keyinchalik kitob va gazetalarga bo'lgan e'tibor kamaya boshladi. Avvallari kombinatda har hafta 3 ming nusxada chiqib kelgan kombinat gazetalari keyinchalik oyda bir marta bir ming nusxada chiqadigan bo'ldi. Bu yilga kelib esa gazetaning qog'oz varianti umuman

to'xtatildi. Hozir faqat elektron shakli tarqatilayapti. Yangi yildan boshlab elektron varianti ham chiqmasligi mumkinligi haqida kombinat rahbariyati tomonidan ogohlantirish berildi.

Urushdan omon chiqqan gazeta...

Ikkinchi jahon urushi ayni avjiga chiqqan, hali qaysi tomon g'alaba qozonishi noma'lum bir vaqtda - 1943-yil 27-apreldan hali ishga tushmagan O'zbekiston metallurgiya zavodida "Za metall" gazetasi chiqarila boshlandi. Shunga ham 82-yildan ziyod vaqt o'tdi.

1989-yil O'zbekistonda Davlat tili haqida qonun qabul qilinganidan so'ng korxonamizda o'zbek tilida gazeta chiqarishni yo'lga qo'yish harakati boshlandi. Bekobodlik metallurglarning bir necha yillik sa'y-harakatlaridan so'ng 1992-yil 7-mart kunidan korxonamizda o'zbek tilida "Metallurg minbari" gazetasi chiqarila boshlandi. Shu kuni kombinat rahbarlarining o'zlari gazetamizni sexlarga tarqatishgan. Ishchi-xodimlar O'zbekiston metallurgiya zavodida Davlat Mustaqilligining birinchi mevasi bo'lgan gazetamizni olib juda quvongan edilar. Afsuski, ikkinchi jahon urushining eng og'ir yillarida ham chiqarilgan "Za metall" hamda Mustaqilligimiz ilk mevasi bo'lgan "Metallurg minbari" gazetalari Yangi yildan boshlab o'z faoliyatini to'xtatmoqda.

GAZETA O'QIMASLIK - ZAMONAVIYLIKMI YOKI QOLOQLIK?



Gazeta o'qish zamon o'tdimi?

Kimdir "Gazeta o'qish zamon o'tdi" deydi. Ammo bu fikr dunyoqarashi tor odamning gapi, xolos. Dunyoning eng rivojlangan davlatlari fuqarolari kitob va gazetalarni ko'p o'qishadi. Masalan, texnologiya eng rivojlangan Yaponiyada har burchakda gazeta o'qib o'tirgan odamni uchratish mumkin. Yaponiyaning "Yomiuri simbul" gazetasi har kuni 8 million nusxada nashr etiladi. Yana shunday ko'p millionli o'quvchilarga ega boshqa gazetarlar ham bor.

Buning sabablaridan biri Yaponiyada boshlang'ich sinflardan boshlab gazetaning ahamiyati o'rgatiladi. Hatto gazeta o'qish darslari mavjud. Shuning uchun yaponlarning ma'naviy saviyasi, fuqarolik madaniyati va jamiyat taraqqiyoti yuqori darajada.

Biz rivojlangan davlatlardan gazeta o'qishda juda orqada qoldik. Davlatimiz rahbari odamlarning

mutolaa qilishini targ'ib qilish uchun qator hujjatlar qabul qilyapti. Maqsad xalqimizni mutolaa qilishga o'rgatish orqali yuksak ilm-fanga, ma'rifatu ma'naviyatga ega bo'lish. Shu orqali rivojlangan davlatlar qatoridan joy olib, xalq farovonligini oshirishdir.

Ismaidiyor MAMATQULOV.

TAQQOSLASH UCHUN

Islandiyada har ming kishi hisobiga 795,7 dona gazeta to'g'ri kelar ekan. Bu ko'rsatkich Yaponiyada 634,5, Norvegiyada 620,3, Shvetsiyada 583,4, Finlyandiya 518,4 donani tashkil etadi. Janubiy Koreya, AQSH, Buyuk Britaniya, Xitoy, Singapur kabi dunyoning eng rivojlangan davlatlari ham gazeta ko'p o'qiladigan yurtlardan hisoblanadi.

Ularga aksi o'laroq Pokistonda bir kunda har ming kishiga o'rtacha bor yo'g'i 23 dona gazeta chiqar ekan. Afg'oniston, Afrikaning qashshoq davlatlarida har bir kishiga bundan ham kam gazeta to'g'ri keladi.



KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH - BARCHAMIZNING VAZIFAMIZ

TARAQQIYOT VA FAROVONLIK TO'SIG'I

Korrupsiya har qanday davlat, har qanday jamiyatni kemiruvchi illat. Insoniyat butun rivojlanish tarixi davomida turli texnologiyalarni ixtiro qildi, ko'plab davosi bo'lmagan kasalliklarga davo topdi. Afsuski, korrupsiyaga qarshi aniq bir dori yo'q. Uni faqatgina tizimli kurash orqali yo'q qilish mumkin. Bu dunyo tajribasida o'z isbotini topgan.

Korrupsiya jamiyatda adolatsizlik, tengsizlik va aholining noroziligiga olib keladi. Bu esa barcha sohadagi islohotlarning natijasiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi. Fuqarolarimizda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatning yetarli darajada emasligi, o'z haq-huquqini himoya qila olmasligi jamiyatda adolat mezonining buzilishini ko'paytiradi.

Davlatimiz rahbari "...Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'yan yuksak marralarga erisha olmaymiz", deb bejiz ta'kidlamagandi.

Shu sababli yangi O'zbekistonda "inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimiz farovonligini yanada oshirish va faol jamiyatni shakllantirishga qaratilgan islohotlar doirasida barcha sohalarida

korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish muhitini shakllantirish talab etiladi.

Yangi O'zbekistonda, ustuvor masala avvalambor yoshlarni korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashuvchilar ruhida tarbiyalashimiz kerak.

"Jamiyatda poraxo'rlik illatini yengib bo'lmaydi", degan fikr yoshlar ongida shakllanib qolgani eng katta kamchiligimiz. Bu borada o'nglanish, siljish qilmasak korrupsiyani yengish haqidagi gaplarimiz amalga oshmay qolaveradi. Toki, biz oilada, bog'chada, maktabda o'g'il-qizlarimiz ongiga, ruhiyatiga tamagirlik, poraxo'rlik yomon

illatgina emas, balki u jamiyatimiz tanazzuli, iqtisodiyotimiz orqaga ketishi sababi ekanligi haqida ko'proq targ'ibot ishlarini olib bormasak, maqsad-muddaoga erisha olishimiz qiyin.

Muqaddas Islom dinimizda ham korrupsiyaga eng katta gunohlardan biri ekanligi sifatida ta'limot berilishini yoshu kattalarimiz yaxshi bilib olishlari shart. Bu borada Qur'onda Alloh taoloning so'zi bor:

Alloh taolo bunday degan: "Mol (va boylik) laringizni o'rtalaringizda botil (yo'llar) bilan yemangiz! Shuningdek, bila turib, odamlarning haqlaridan bir qismini gunoh yo'li bilan yeyish (o'zlashtirish) maqsadida uni hokimlarga havola etmangiz!" (Baqara surasi, 188-oyat).

Poraning sunnatda harom qilinganiga kelsak, bu boradagi hadislar juda ko'p. Ulardan biri Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning mana bu qarg'ishlaridir: "Pora beruvchiga ham, pora oluvchiga ham Allohning la'nati bo'lsin!". Yana ul zot: "Pora beruvchini ham, pora oluvchini ham, ikkovi orasida yurib porada vositalik qiluvchini ham Alloh la'natlasin!", deganlar.

Alloh taolo taqiqlagan, Payg'ambarimiz qarg'agan ishni qiladiganlarga qarshi kurash esa har birimizning burchimiz bo'lib qolsa, albatta davlatimiz taraqqiy etib, xalqimiz farovonlikka erishadi.

Ismat DIYOROV.



Korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini samarali hal etish O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu maqsadda kombinatning bir qator bo'linmalarida Komplaens xizmati tomonidan ishchi-xodimlar ishtirokida davra suhbatlari tashkil etilmoqda. 15-dekabrda boshlangan bu davra suhbatlarida korrupsiyaviy holatlarning, manfaatlar to'qnashuvlarining ko'rinishlari, ularni vaqtida aniqlash haqida tushunchalar berildi.

HAR BIRIMIZ
MAS'ULMIZ

Bu tadbirlarda har bir ishchi-xodim ham manfaatlar to'qnashuvi holatlarining oldini olish va tartibga solish bo'yicha mas'ulligi, manfaatlar to'qnashuviga chek qo'yilsa, korrupsiya barham topishi alohida ta'kidlab o'tildi.

Bu davra suhbatlaridan oldin kombinatda Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan "Ochiq eshiklar kuni" tadbiri bo'lib o'tdi.

Ushbu tadbir jamoatchilikka oshkoralikni ta'minlash, huquqiy madaniyatni oshirish va korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishtirish maqsadida tashkil etildi.

Tadbirda kombinat rahbariyati, tarkibiy bo'linmalar boshliqlari hamda huquq-tartibot idoralari vakillari ishtirok etishdi. Ular tomonidan korrupsiyaning oldini olishda ichki ishlar idoralari va sud hokimiyatining o'rni, ularning o'zaro hamkorlik mexanizmlari haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, Adliya bo'limi mutaxassislari tomonidan qonunchilikda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning ahamiyati va amaliyotdagi o'rni yuzasidan tushuntirishlar berildi. Tadbir davomida Din ishlari bo'yicha mutaxassislar ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, jamiyatda barqaror ma'naviy muhitni ta'minlashga qaratilgan ishlar haqida ham to'xtalib o'tdilar.

"Ochiq eshiklar kuni" ishtirokchilarga muhim huquqiy ma'lumotlar berish, ochiq muloqot tashkil etish va mavjud muammolarga birgalikda yechim izlash imkonini yaratdi.

Akbarali ABDUALIYEV.

BARQAROR ISHLAB CHIQRISH VA YUQORI SIFAT NAMUNASI

ZAMON BILAN HAMQADAM

"Bekobod Emal" mas'uliyati cheklangan jamiyat jamoasi ko'p yillik tajribasi, yuqori kasbiy mahorati va zamonaviy yondashuvi asosida turli hajm va dizayndagi sirlangan idishlar ishlab chiqarishni izchil yo'lga qo'yan. Ishlab chiqarish jarayoni puxta rejalashtirilgan bo'lib, har bir bosqichda sifat nazoratiga alohida e'tibor qaratiladi. Mahsulot dizaynida milliy did va zamonaviy talablar uyg'unlashgan.

O'tgan oyda "Bekobod Emal" MCHJda 11 milliard 753 million so'mlik amaldagi narxlardagi sirlangan idishlar ishlab chiqarilib, belgilangan reja 101,8 foizga bajarildi. Ushbu ko'rsatkich "Bekobod Emal" MCHJning barqaror faoliyati, ishlab chiqarish salohiyati va xodimlar mehnatining samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

Ayni paytda korxonada 2-3 litr hajmli bidonlar, 4,5-7 litrli laganlar, ikki turdagi 12 litr hajmdagi paqirlar, 16 litrli manti qozonlar, 2, 5 va 3 litrli kastyulkalar, 2 litr hajmli choynaklar hamda 6,5-16 litr oralig'idagi tog'oralar ishlab chiqarilmoqda. Turli xil mahsulot assortimenti uy bekalarining kundalik ehtiyojlarini to'liq qamrab olishga xizmat qilib, xaridorlar orasida katta qiziqish uyg'otmoqda.

Mahsulotlarning bezagi va tashqi ko'rinishiga mas'ul bo'lgan bezaklovchi ustalar Zarnigor Marufova, Matluba Erkayeva, Sevara Kamolova va Ziyoda Mamatuzoqova o'z ishiga ijodiy yondashib, har bir idishga o'ziga xos joziba bag'ishlamodalar. Ularning mahorati tufayli tayyor mahsulotlar nafaqat sifatli, balki nafis ko'rinishi bilan ham ajralib



turadi.

"Bekobod Emal" MCHJ mahsulotlari bugungi kunda Turkmaniston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Moldova, Ozarbayjon, Tojikiston va Latviya kabi davlatlarga eksport qilinmoqda. Bu esa korxona ishlab chiqarayotgan sirlangan idishlarning xalqaro andozalarga javob berishi hamda xorijiy bozorda raqobatbardosh ekanidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, "Bekobod Emal" MCHJ xodimlarining boy tajribasi, kasbiy mahorati va mas'uliyatli mehnati tufayli korxona sifatli, chiroyli va ishonchli sirlangan idishlar ishlab chiqarishda yetakchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Korxona nafaqat ichki bozor ehtiyojlarini qondirmoqda, balki xalqaro maydonda ham o'z mavqeini mustahkamlab, milliy sanoat salohiyatini yuksaltirishga munosib hissa qo'shmoqda.

Lobar JUMABOYEVA.



BAYRAMONA KAYFIYAT ULASHILMOQDA

Kombinat kasaba uyushmasi qo'mitasi tashabbusi bilan metallurlarni kelayotgan yangi 2026-yil bilan qutlash, ularga bayramona kayfiyat ulashish maqsadida an'anaviy tarzda bo'linmalarga Qorbobo va Qorqiz tashrifi boshlandi. Ayniqsa, butun yil davomida sidqidildan mehnat qilgan metallurlar uchun bunday e'tibor yanada quvonarlidir.

Bayram tadbiri doirasida Qorbobo va Qorqiz kombinatning turli tarkibiy bo'linmalariga tashrif buyurib, ish joylarida mehnat qilayotgan ishchi-xodimlarni yangi yil bilan samimiy tabriklashmoqda. Ular metallurlarga mustahkam sog'liq, oilaviy baxt-saodat, ish faoliyatida yangi yutuq va zafarlar tilab, ezgu niyatlarini bildirmoqdalar.

Tashrif davomida bayramona muhit yaratilib, ishchi-xodimlarga ramziy sovg'alar topshirilmoqda. Qorbobo va Qorqizning quvnoq chiqishlari, samimiy tabassumlari va iliq so'zlari barchaga ko'tarinki

kayfiyat, yangi umid va ishonch bag'ishlab, bayram ruhini yanada oshirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, metallurlarning mehnatga bo'lgan ishtiyoqi va ruhiy ko'tarinkiligini mustahkamlamoqda.

Aytish joizki, kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan tashkil etilayotgan bunday tadbirlar jamoada birdamlikni mustahkamlash, ishchi-xodimlarni ma'naviy qo'llab-quvvatlash hamda bayramni har bir metallurg uchun unutilmas qilishga xizmat qiladi.

Ravshan BOLTABOYEV.



TO'LIQ BAXT HISSI

Qishning sovuq kechalaridan biri. Hamma joyda yangi yil shovqini. Botir aka esa xonasida o'tirib, yangi yilni qanday kutib olish haqida bosh qotirardi. U shovqin-suronni yoqtirmas, yolg'izlikni xush ko'rardi. Uning bu odatini bilgan yaqinlari ham bu uyga kelavermas edilar.

- Har yilgidek yangi yilni tinchgina kutib olaman, - deb qo'ydi u o'ziga-o'zi.

Botir aka yangi yilni kutib olish uchun tayyorgarlikka tushdi: choy quydi, stolni bezadi. Biroq soat 21 ga yaqinlashganda uning ko'zlari "qish uyqusi" rejimiga o'ta boshladi. U o'zini tetiklantirish uchun turib yurdi, televizor qo'ydi, hatto muzdek suv ichdi. Lekin baribir ko'zlari yumilardi.

Bir vaqt eshik ochilib, farzandlari, ukasi va singlisi "Yangi yil muborak!" deb kirib kelishdi. Ularning qo'lida bayram sovg'alari, yuzlarida quvonch bor edi.

Kutilmagan mehmonlar Botir aka yuragiga ilqlik olib keldi.

Ularni stolga taklif qildi. Hamma xursand, qiziq voqealarni xotirlab suhbatlashishdi. Uy ichi darhol nurga to'lgandek bo'ldi.

Soat 24.00ga bong urdi. Hamma birgalikda chapak chaldi, bir-biriga tilaklar bildirdi.

Shu lahzada Botir aka hayotdagi eng asosiy haqiqatni - to'liq baxt hissi faqat yaqin insonlar davrasida paydo bo'lishini anglab, shunday dedi:

- Bayramlar emas, mana shunday lahzalar, yaqinlar davrasi insonning kayfiyatini ko'tarar ekan. Sizlarsiz Yangi yilni nishonlash bunchalik bayramona kayfiyat bermasligini anglab yetdim. Sanalar emas, balki oramizdagi shukronalik, samimiyat va birdamlikning o'zi bayram ekan.

Shu tariqa Botir aka yangi yilni ko'tarinki kayfiyatda, ezgu niyatlar va yaqinlariga bo'lgan samimiy muhabbat bilan qarshi oldi.

Diyor ZULFIQOROV.



yuksak nomga sazovor bo'ldi.

Bir vaqtning o'zida ham ishlab chiqarishda yetakchi bo'lish, ham respublika miqyosidagi sport musobaqasida oltin medalni qo'lga kiritish bu katta matonat, qat'iyat va temir intizom samarasidir. Hasanboyning ushbu yutug'i korxona jamoasi uchun ham katta faxr

ISHLAB CHIQARISHDA - YETAKCHI, SPORTDA - CHEMAPION!

Ishlab chiqarish sohasida fidokorona mehnat qilayotgan mutaxassislarning sportda ham yuqori natijalarga erishayotgani quvonarli hol. "Bekobod Emal" MCHJning 1-brigadasi katta ustasi Hasanboy Otayev ana shunday ibratli xodimlardan biri hisoblanadi.

Joriy yilning 12-14-dekabr kunlari Toshkent shahridagi Olimpiya shaharchasida sportning karate (WKF) turi bo'yicha kattalar o'rtasida O'zbekiston chempionati bo'lib o'tdi. Ushbu nufuzli musobaqada Hasanboy Otayev jamoaviy bahslarda munosib ishtirok etib, faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi va mamlakat chempioni degan

manbai bo'ldi.

Qo'lga kiritilgan g'alaba natijasida chempionimiz 2026-yil iyun oyida Indoneziyada bo'lib o'tadigan Osiyo chempionatiga yo'llanmaga ega bo'ldi. Endi u xalqaro sport maydonlarida Vatanimiz sharafiga himoya qiladi. Biz undan Osiyo chempionatida ham yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarishini kutamiz.

Bunday yutuqlar ishlab chiqarish va sport uyg'unligi, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash hamda kadrlarni har tomonlama rivojlantirish muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Oqila ABDURAHMONOVA.

HIKMAT

Yetmish yildan beri kitob o'qib, mana bu so'zlardan go'zalrog'ini topmadim: Toatning mashaqqati ketadi, savobi qoladi. Gunohning lazzati ketadi, jazosi qoladi.

Ali Tantoviy rahimahulloh.

Kim bilan yurganingizga, do'stlaringiz kim ekaniga diqqatli bo'ling. Chunki, bulbul gulga, qarg'a esa chiqindixonaga olib boradi.

Jaloliddin Rumiy.

Bolasi otasidan ko'proq kitob o'qimagan millat taraqqiy etolmaydi.

Shenis Yujel.

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) Makkada necha yil, Madinada nechi yil payg'ambar bo'lganlar?

1990-yilda Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish korxonasi qaysi musobaqada g'olib chiqqan.

2021-yil noyabrda kombinatimiz hududida "Showroom" (ishlab chiqaruvchilar va xaridorlar o'rtasida ko'rgazma) tashkil etildi. Bundan qanday maqsad ko'zlangan edi?

Bir hayvon insonni uncha-munchaga quvlaymaydi, ammo bir quvish qilsa, jahl otiga minsa undan qochish amru mahol. Ammo qabristonga kirib olsangiz, marra sizniki, uni shiddat otidan tushira olasiz. Bu hayvonning nomini toping.

Ajdodlarimiz sopol va chinni idishlar paydo bo'lguncha ovqatni o'zlari 2 ta mahsulotdan yasagan laganga suzishgan. Bular qanday mahsulotlar edi?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari:

*1970-yilda O'zbekiston metallurgiya zavodini kengaytirish va tubdan ta'mirlashga doir ulkan dasturni amalga oshirish boshlangan.

*1980-yilda Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish korxonasining mahsulot ishlab chiqarish quvvati 26 ming tonna bo'lgan.

*1978-yil 17-avgustida Elektrda po'lat eritish sexi ishga tushirilganda uning po'lat eritish quvvati 250 ming tonna bo'lgan.

*Qarg'alar gala-gala bo'lib shoxlarga kechqurun qo'nib, ertalab uchib ketadi. Bu shoxlar kechasi ular taftidan qiziydi, kunduzi muzlaydi. Bu hol surunkali ravishda takrorlanavergach, o'sha shoxning o'sish jarayoni buziladi va bahorga kelib asta-sekin quriy boshlaydi.

* Himolay tog'i.

* Tornado.



MUASSIS:
**O'zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.**

www.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
"O'zmetkombinat"
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya
apparatida joylashgan.
Tel: 10-19

**Gazeta oyda ikki marta
chiqadi**

Gazeta tahririyat kompyuterida
terilib, sahifalandi.

Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X

Sahifalovchi:
Nigora AHMEDOVA

Toshkent viloyati Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
boshqarmasi tomonidan 2015-
yil 6-mayda 03-006 raqam bilan
ro'yxatga olingan.